

O'ZBEKISTONNING BARQAROR XAVFSIZLIGINI TAMINLASHDA FAVQULODDA VAZIYATLAR SOHASIDAGI KO'P TOMONLAMA XALQARO HAMKORLIGI.

B.Teshaboyev

FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi

D.Yo'ldoshev

FVV Akademiyasi 5-batalyon kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolda mamlakatimizning xalqaro maydondagi favqulodda vaziyatlar, xususan, tabiiy, texnogen va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlar sohasidagi ko'p tomonlama xalqaro hamkorligi, barcha turdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi xalqaro bitimlar, tomonlarning bitimlardagi huquq va majburiyatlari hamda xalqaro hamkorlikning asosiy prinsip va tamoyillari yoritilgan. Bundan tashqari transchegaraviy xarakterga ega bo'lgan tabiiy, texnogen va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda kuch-vositalarni taqsimlash, zarur texnika, asbob-anjomlar bilan ta'minlanish hamda boshqa moliyaviy masalalar ham o'rganib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *BMT, tashkilotlar, hamkorlik, favqulodda vaziyat, ofat, xalqaro hujjat, bitim, rezolyutsiya, potentsial xavfli obyekt, bartaraf etish.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены многостороннее международное сотрудничество нашей страны в области чрезвычайных ситуаций на международной арене, в частности чрезвычайных ситуаций природного, техногенного и экологического характера, международные соглашения в области предотвращения и ликвидации последствий всех видов чрезвычайных ситуаций. освещены права и обязанности сторон в соглашениях, а также основные принципы и принципы международного сотрудничества. Кроме того, изучались вопросы распределения ресурсов, обеспечения необходимым оборудованием и другие финансовые вопросы при ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций природного, техногенного и экологического характера трансграничного характера.*

Ключевые слова: *ООН, организации, сотрудничество, чрезвычайная ситуация, катастрофа, международный документ, соглашение, резолюция, потенциально опасный объект, ликвидация.*

Annotation: *This article examines the multilateral international cooperation of our country in the field of emergency situations in the international arena, in particular emergencies of a natural, man-made and environmental nature, international agreements in the field of prevention and mitigation of the consequences of all types of emergency situations. the rights and obligations of the parties to agreements are covered, as well as the basic principles and principles of international cooperation. In addition, issues of resource distribution, provision of necessary equipment and other*

financial issues were studied when eliminating the consequences of natural, man-made and environmental emergencies of a transboundary nature.

Key words: *UN, organizations, cooperation, emergency, disaster, international document, agreement, resolution, potentially dangerous object, liquidation.*

Hozirgi vaqtda jahon hamjamiyatida favqulodda vaziyatlar, xususan, texnologik taraqqiyotning yuqori sur'atlari tufayli yuzaga kelgan tabiiy va texnogen ofatlar, shuningdek, murakkab epidemiologik vaziyat sezilarli darajada oshib bormoqda.

Falokat va ofatlar hamisha insonlar bilan yonma-yon bo'lgan. Insoniyat qanchalik rivojlansa, tabiiy ofatlar va ularning oqibatlarini hamda hajmi ham yuqori bo'ladi. Buni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining 2013-yil hisobotida keltirilgan statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. 1992-yildan boshlab 2013-yilgacha xalqaro miqyosda qayd etilgan 302 taga yaqin tabiiy ofat sodir bo'lgan bo'lsa, ularda 15 302 nafar odamlar nobud bo'ldi va 102 million kishiga zarar yetdi¹.

Xalqaro hamkorlik deyarli har doim huquqiy hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Huquqiy hujjatlar yordamida aniq munosabatlarni tartibga solish amalga oshiriladi. Davlatlarning turli hususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish bo'yicha munosabatlari xalqaro hamkorlikning bir turi hisoblanadi. Ushbu davlatlararo munosabatlarni ma'lum darajada tartibga soluvchi hujjatlar turlaridan biri BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ilmiy maxsus adabiyotlarda "BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari tabiiy ofatlar va falokatlardan himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega" degan qat'iy fikr mavjud². Biroq, bunday baholash uchun ushbu hujjatlarning ahamiyati va turli xil tabiiy ofatlardan himoya qilish sohasidagi hamkorlikni xalqaro huquqiy tartibga solishdagi o'rnini aniqlash uchun tahlil qilish kerak bo'ladi. Tabiiy ofatlar ko'plab odamlarning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va butun dunyo bo'ylab, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarning infratuzilmalari va boshqa ko'plab mulklariga katta zarar yetkazadi. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, 1965-yildan 1992-yilgacha bo'lgan davrda dunyoda halokatli tabiiy hodisalarida qariyb 3,6 million kishi halok bo'ldi, 3 milliarddan ortiq kishi zarar ko'rdi va jami iqtisodiy zarar 340 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yilliklarda tabiiy ofatlar soni sezilarli darajada oshgan va bu o'sish tendensiyasi davom etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1987-yil 12-dekabrda rezolyutsiyasi bilan tabiiy ofatlar insoniyat hayoti va insoniyat taraqqiyotiga asosiy tahdid sifatida e'tirof etildi³.

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgach aholi xavfsizligini ta'minlash masalasi dolzarb vazifa bo'lib qoldi. 1991-yil 6-sentabrda O'zbekiston respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risida"

¹ Доклад Генерального секретаря ООН «Осуществление международной стратегии уменьшения опасности бедствий» от 14 августа 2013 г. № А 68/320 // Официальный сайт ООН: www.un.org (2014. 25 янв.).

² Катастрофы и государство / под ред. С. К. Шойгу, Ю. Л. Воробьева, В. А. Владимиров. М. : Энергоатомиздат, 1997. 160 с.

³ Резолюция ГА ООН № 42/169 [Электронный ресурс] // Официальный сайт ООН. URL: <http://www.un.org/documents/ga/res/42/a42r169.htm>

gi PF-243-son farmoni imzolandi. Ushbu farmonga binoan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini hamda respublikaning hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi⁴. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabr kuni "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi masalalari" to'g'risidagi 269-son qarori qabul qilindi. Qarorga binoan Fuqaro mudofaasi va favqulodda holatlar boshqarmasi tuzildi. Bu boshqarma Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilgunga qadar favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda bartaraf etish, aholini sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish, fuqarolarni korxonalar, tashkilot va muassalarda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatish va ko'plab boshqa targ'ibot-tashviqot va profilaktika tadbirlarini amalga oshirgan.

1993-yil 22-yanvar kuni Belorussiya Respublikasining Minsk shahrida "Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida o'zaro hamkorlik to'g'risida" bitim imzolandi. Ushbu bitim tabiiy ofatlar, texnogen avariya va falokatlar natijasida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda o'zaro hamkorlikda ishtirok etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Shartnoma ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo'lgan:

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish uchun mo'ljallangan tizimlar va organlarning integratsiyasi, shu jumladan bunday vaziyatlarda milliy harakatlar rejalarini muvofiqlashtirish;

- qonunchilik normalarini yaqinlashtirish va maxsus yo'nalishlarda o'zaro hamkorlik va hamkorlik uchun zarur bo'lgan kelishuvlarni ishlab chiqish;

- xalqaro tashkilotlarda qo'shma harakatlarni amalga oshirish va tegishli yo'nalishdagi xalqaro dasturlarda ishtirok etish;

- favqulodda vaziyatning yuzaga kelishi va oqibatlari uchun bitim tarafining javobgarligi;

- favqulodda vaziyatlarda profilaktik choralarini;

- davlatlarning ichki darajadagi qarorlar qabul qilishdagi mustaqilligi.

Bitim taraflari quyidagi asosiy yo'nalishlarda o'zaro hamkorlik qiladilar:

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha o'zaro hamkorlik tizimini yaratish va takomillashtirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish (tashkil etish);

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shu jumladan aholini, moddiy va madaniy boyliklarni, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlatlararo maqsadli va ilmiy-texnikaviy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.09.1991 yildagi PF-243-son Farmoni

- potentsial xavfli obyektlarning, atrof-muhitning holatini nazorat qilish, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi va ularning ko'lamini prognozlash;
- potentsial xavfli obyektlar va atrof-muhitning holati, favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish jarayoni va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risida o'zaro xabardor qilish;
- favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va jabrlangan aholini bitim ishtirokchilari hududlarida joylashtirish choralari ko'rish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Bitim tomonlari tegishli so'rovni olgan holda bitim ishtirokchilarining hududlarida favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini olib borishga zudlik bilan jalb etilishi mumkin bo'lgan kuchlar va vositalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bir-birlariga taqdim etadilar.

Bitim ishtirokchisi keng ko'lamli tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, so'ralgan yordamning aniq turlari va miqdorlarini ko'rsatgan holda bitimning boshqa tomonlariga zarur yordam so'rab murojaat qilishi mumkin.

Yordam ko'rsatish uchun jalb qilingan kuchlar va vositalarni boshqarish hududida qutqaruv ishlari olib borilayotgan bitim tomoni tomonidan amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish, hayotni maromini ta'minlash masalalarini hal qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish uchun boshqa kuch va vositalarni jalb qilish zarur bo'lsa, bitim ishtirokchilari Hamdo'stlik Hukumat rahbarlari kengashiga tegishli takliflarni ishlab chiqadilar va kiritadilar.

Shartnoma ishtirokchilarining kuchlari va vositalari avariya-qutqaruv va boshqa ishlarni bajarishga yordam so'ragan tomon hisobidan yoki boshqa kelishilgan shaklda ko'rilgan xarajatlarni keyinchalik qoplash shartlarida jalb etiladi.

Bitim taraflari ushbu bitimni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni bir-birlariga zudlik bilan taqdim etish majburiyatini olganlar.

Bitim taraflari ushbu bitimni talqin qilish va qo'llash bo'yicha kelishmovchiliklarni muzokaralar yoki o'zlari tanlagan boshqa tinch yo'l bilan hal qiladilar.

Mazkur bitim qoidalarini amalda tatbiq etish maqsadida har bir davlatdan bittadan bitim ishtirokchilarining vakolatli vakillaridan iborat "Tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar bo'yicha" Davlatlararo kengash tuzildi.

Tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar bo'yicha davlatlararo kengash o'z faoliyatida Hamdo'stlik Hukumat rahbarlari kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizomga amal qiladi⁵.

⁵ "Соглашение о взаимодействии в области предупреждения и ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера" Минск, 22 января 1993 года (Вступило в силу для Республики Узбекистан 22 января 1993 года)

1998-yil Qirg'iziston Respublikasining Cho'lpon-Ota shahrida "Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston Respublikalari o'rtasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi" Bitim imzolandi. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston Respublikalari o'rtasida 1997-yil 10-yanvardagi "Abadiy do'stlik to'g'risida"gi Shartnomaning maqsad va tamoyillariga amal qilgan holda, mintaqaning ekologik tizimlarining o'zaro bog'liqligini va oqibatlarini tomonlardan birining kuchlari va vositalari bilan bartaraf etib bo'lmaydigan favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimolini, shuningdek, ishtirokchi davlatlarning kelishilgan harakatlari zarurligini hisobga olgan holda, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda jabrlangan tomonlarga xalqaro huquq asosida zarur yordam ko'rsatish uchun rivojlanayotgan mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish istagida, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun avariya-qutqaruv kuchlari, moddiy-texnik, tibbiy, oziq-ovqat, moliyaviy va axborot resurslaridan birgalikda foydalanish zarurligini e'tirof etib, favqulodda vaziyatlarda xalqaro yordam ko'rsatish sohasida BMTning sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ushbu sohadagi huquqiy bazani shakllantirish va samaradorligini oshirishga hissa qo'shishga intilishga kelishib oldilar.

Ushbu bitim inson hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diradigan yoki tomonlardan birining kuchlari va vositalari bilan bartaraf etilishi mumkin bo'lmagan katta moddiy zararga olib keladigan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishga nisbatan qo'llaniladi⁶.

2002-yil 30-may kuni Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida "MDHga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning elektr energetika obyektlarida avariya va boshqa favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi" Bitim imzolandi.

Ushbu bitimda 1998-yil 25-noyabrdagi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning elektr energetika tizimlarining parallel ishlashini ta'minlash to'g'risidagi Shartnoma va 1993-yil 22-yanvardagi tabiiy va texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarining oldini olish va bartaraf etish sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimga amal qilgan holda, avariya va boshqa favqulodda vaziyatlarda iste'molchilarni energiya bilan ta'minlash va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning elektr energetika tizimlarining barqaror ishlashini ta'minlashda o'zaro yordam ko'rsatish masalalarini tashkil etish va hal etish muhimligini tushunib, elektr energetikasi obyektlarida avariya va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha masalalarni birgalikda hal etishning dolzarb zarurati va manfaatdorligini inobatga olib bir qancha masalalarda kelishib oldilar. Tomonlarning ushbu Bitimga muvofiq barcha faoliyati, shu jumladan

⁶ Соглашение между Республикой Казахстан, Кыргызской Республикой, Республикой Таджикистан и Республикой Узбекистан о сотрудничестве в области предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций 17 июля 1998 года, г. Чолпон-Ата (Кыргызская Республика)

axborot almashish va yordam guruhlarini yuborish orqali yordam ko'rsatish xalqaro shartnomalar va tomonlarning milliy qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Hududida favqulodda vaziyat sodir bo'lgan tomon istalgan vaqtda so'ralgan yordamni bekor qilishi mumkin. Bunday holda, yordam ko'rsatuvchi tomon (Tomonlar) yordam ko'rsatish bilan bog'liq o'zi tomonidan qilingan xarajatlarning o'rnini qoplatishga haqli ekanligi keltirib o'tilgan⁷.

2005-yil 26-oktabr kuni Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida "Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish bo'yicha hamkorlik to'g'risida"gi bitim imzolandi. Bitimda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasidagi hamkorlik Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlarning farovonligi va xavfsizligiga hissa qo'shishini e'tirof etib, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlarning ekologik tizimlarining o'zaro bog'liqligiga asoslanib, bunday favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha kelishilgan siyosatni, shuningdek, atrof-muhit monitoringini tashkil etishni talab qilgan holda, tomonlardan birining kuchlari va vositalari bilan bartaraf etilishi mumkin bo'lmagan favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi ehtimolini, shuningdek favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha tomonlarning kelishilgan harakatlariga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda, favqulodda vaziyatlarda yordam berish uchun mintaqaviy hamkorlik tamoyillarini kengaytirish va jabrlangan aholiga samarali va muvofiqlashtirilgan yordamni ta'minlash uchun birgalikda sa'y-harakatlarni amalga oshirish lozimligini, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda xalqaro yordam ko'rsatish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlab, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda kelishib oldilar.

Tomonlar favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda zudlik bilan yordam ko'rsatish maqsadida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga, shuningdek, tomonlar davlatlarining qonunchiligiga rioya qilgan holda ushbu bitim qoidalariga muvofiq hamkorlik qiladilar⁸.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risida"gi PF-243-son Farmoni.

2. Доклад Генерального секретаря ООН «Осуществление международной стратегии уменьшения опасности бедствий» от 14 августа 2013 г. № А 68/320 // Официальный сайт ООН: www.un.org (2014. 25 янв.).

⁷ Соглашение между правительствами государств-участников СНГ о взаимопомощи в случаях аварий и других чрезвычайных ситуаций на электроэнергетических объектах государств-участников Содружества Независимых Государств 30 мая 2002 года, г. Москва (Российская Федерация)

⁸ Соглашение между правительствами государств-членов Шанхайской организации сотрудничества о взаимодействии при оказании помощи в ликвидации чрезвычайных ситуаций 26 октября 2005 года, г. Москва (Российская Федерация)

3. Катастрофы и государство / под ред. С. К. Шойгу, Ю. Л. Воробьева, В. А. Владимирова. М. : Энергоатомиздат, 1997. 160 с.

4. Резолюция ГА ООН № 42/169 [Электронный ресурс] // Официальный сайт ООН. URL: <http://www.un.org/documents/ga/res/42/a42r169.htm>.

5. “Соглашение о взаимодействии в области предупреждения и ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера” Минск, 22 января 1993 года (Вступило в силу для Республики Узбекистан 22 января 1993 года).

6. Соглашение между Республикой Казахстан, Кыргызской Республикой, Республикой Таджикистан и Республикой Узбекистан о сотрудничестве в области предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций 17 июля 1998 года, г. Чолпон-Ата (Кыргызская Республика).

7. Соглашение между правительствами государств-участников СНГ о взаимопомощи в случаях аварий и других чрезвычайных ситуаций на электроэнергетических объектах государств-участников Содружества Независимых Государств 30 мая 2002 года, г. Москва (Российская Федерация).

8. Соглашение между правительствами государств-членов Шанхайской организации сотрудничества о взаимодействии при оказании помощи в ликвидации чрезвычайных ситуаций 26 октября 2005 года, г. Москва (Российская Федерация).